

## "BOBURNOMA" – TABIATNI TASVIRLASHDA ILK MANBA SIFATIDA

**Majidov Umedjon Abduraxmonovich**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
magistranti majidovumedjon1985@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari "Boburnoma" merosi to'g'risidadir. Asarda Bobur o'zining kelib chiqishi, harbiy yurishlari, Hindistonda tashkil etgan buyuk saltanati haqida batafsil ma'lumot beradi. "Boburnoma"da shaxs va joy nomlari ko'p bo'lsa-da, ular qiziqarli va o'qishga qulay hisoblanadi. Bobur buyuk davlat arbobi bo'la turib, tabiatshunos va sayyoh olim sifatida ham hodisa-jarayonlarni shunchalik sinchkovlik bilan kuzatgan va yoritganki, ularning ko'pchiligi bugungi kundagi ilmu fan xulosalariga to'liq ravishda to'g'ri keladi. Asarda Bobur kezib chiqqan daryo, tog', cho'l, bo'ston, qishloq, shahar, dalayu dashtlarning tabiati, ko'rinishi, foyda va ziyoni to'g'risida batafsil va yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning mazkur bebaho merosi tariximizni kelajak sari olg'a yetaklovchi noyob haqiqatdir. Shuning uchun ham, sharqshunoslar tomonidan bu buyuk mutafakkir ijodi haligacha qayta-qayta chuqur o'rganilib kelinmoqda. 1980-yilda YUNESKO fransuz tiliga yangi tarjima uchun tanlov e'lon qilgani buning yaqqol isbotidir.

**Kalit so'zlar:** *tabiat, badiiy-falsafiy fikrlar va qarashlar, insonparvarlik mohiyati, ilm madaniyati, tabiat go'zalligi, estetika, ekologiya, arxeologiya, etnografiya, san'at va inson.*

**Abstract:** *This article is about the heritage of Zahiruddin Muhammad Babur's masterpiece "Baburnoma". In the work, Babur gives detailed information about his origin, military campaigns, and the great kingdom he founded in India. Although "Boburnoma" contains many names of people and places, they are interesting and easy to read. Babur, being a great statesman, as a naturalist and tourist scientist, observed and covered events so carefully that many of them completely correspond to the conclusions of today's science. The work contains detailed and sufficient information about the nature, appearance, benefits and harms of rivers, mountains, deserts, cities, villages, cities, fields and steppes that Babur visited.*

*This priceless legacy of Zahiruddin Muhammad Babur is a unique truth that leads our history forward into the future. That is why the work of this great thinker is still being repeatedly studied by orientologists. In 1980, UNESCO announced a competition for a new French translation.*

**Key words:** *nature, artistic-philosophical thoughts and views, essence of humanity, culture of science, beauty of nature, aesthetics, ecology, archeology, ethnography, art and man.*

**KIRISH**

Dunyo estetik tafakkuri rivojida Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy-falsafiy merosi bo'lgan "Boburnoma" asari munosib o'rin egallaydi. Mazkur asar hozirgacha to'laligicha chuqur falsafiy tahlil etilmagan, uni estetik olami hali keng tahlil va yoritilmagan manba sifatida qolmoqda. "Boburnoma"ni estetik ruhida, ayniqsa, tabiat estetikasi rakursida juda kam o'rganilgan. Shu bois, ushbu tarixiy memuar asarni keng falsafiy tadqiq etish ilmiy-amaliy tadqiqotlarning asosiy va dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va badiiy-falsafiy qarashlari yoshlarning axloqiy-estetik tafakkurini shakllanishida muhim omil bo'lishi bilan birga o'zbek falsafasi asoslarini yuksaltirish uchun ham yuksak ijodiy namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan ham allomaning ilhombaxsh axloqiy-estetik tafakkurini, undagi yuksak g'oyaviy-badiiy mazmunni, ijodkor shaxsiyati va uning badiiy san'at mahorati, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## II. Materiallar va metodlar

Bobur o'zining 47 yillik umri mobaynida o'lkan she'rlar to'plamini tuzdi, "Mubayyin" va "Risolai volidiya" nomli she'riy asarlarni yaratdi, jahonga shuhrati keng tarqalgan qomusiy asar "Boburnoma"ni yozdi, "Xatti Boburiy" deb nomlangan sodda va tushunarli bo'lgan yangi alifbo tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harb ishiga oid risolalari bilan ilm rivoji va ravnaqiga katta hissa ko'shdi. Afsuski, Boburning qofiya, musiqa va harb ishiga oid risolalarining qo'lyozmalari bizgacha yetib kelmagan. Boburning "Boburnoma"sini tilshunos, adabiyotshunos, manbashunos va matnshunoslardan tashqari bir qator ijtimoiy-gumanitar soha mualliflari V.Zohidov, H.Qudratullaev, A.Zohidiy, B.Jalilovlar falsafiy-irfoniy va axloqiy-estetik tomonlarini ham o'rgangan.

Jumladan, Abdulqodir Zohidiy "...Boburning badiiy (estetik) merosi, falsafiy dunyoqarashi, tushunchasi, muammo, ideallarini maxsus tadqiq etish mumkinligiga amin bo'ldik. Dastlabki umumlashtiruvchi xulosamiz – mazkur asarda Boburning asl (haqiqiy) go'zallik – Alloh Taolo go'zalligi, inson dunyosining go'zalligi, buyuk insonparvarlik g'oyalari, qadriyatlarining oshuftasi bo'lganligi, badiiy ijod usullarini hozirgi zamon falsafasi, estetika nazariyasi, tadqiqot usullari bilan o'rganish, qayta tiklash (reduksiya qilish), xulosalar berish, baholash mumkin bo'lgan diniy-falsafiy asar degan qat'iy fikrga keldik", deydi [Zohidiy A. 2016: b.295].

Sharq olimu mutafakkirlarining uslubiga xos tarzda Bobur o'z estetik qarashlarini she'riy janrda ham bayon qilgan. Bobur o'z davrining yuksak estetik did sohibi hisoblangan. Tabiat go'zalligidan huzurlanish hammaga ham nasib etmaganidek, Bobur yashagan davr qanchalik murakkab va tahlikali bo'lmasin, u tabiat go'zalligini his qila olgan, estetik munosabatlarini amalga oshira olgan.

## III. Muhokama va natijalar

Muallif "Boburnoma"dagi shaxslarga axloqiy ta'rif va tavsif keltirishda avval, kishilarning eng yaxshi odatlarini o'rganishga, ularning foydalilarini davom ettirish,

hayotning hozirgi talablariga javob bermaydigan tartib va qoidalar o'rniga yangilarini yaratish va joriy qilishga da'vat etish masalalarini ilgari surgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda, voqea tasvirini bag'oyat ixcham va tushunarli tarzda bayon etishga, bayon qilmoqchi bo'lgan fikrning haqqoniy mazmunini ochishga muvaffaq bo'lgan. "Zahriddin Muhammad Boburning shohlik mavqei uning tabiatiga xos to'g'rilik, haqgo'ylik va sadoqat bilan birlashib, Boburnomada haqiqatni bayon etishga zamin hozirlaydi"[Qudratullaev H. 2018: b.25].

O'rta asr Sharq va Yevropa insonparvarlari singari Bobur ijodiyotida ham olamning antropotsentrik tuzilishi markaziy o'rinni egallaydi. Ya'ni, o'sha davr mutafakkirlari geotsentrik nazariyaga asoslanib tasavvur qilganidek, koinot markazi jonsiz jinlar va yonuvchi gazlardan iborat Yer yoki Quyosh yulduzi emas, balki eng buyuk va ulug'i bo'lgan inson turadi. Bobur insonparvarligida insonga muhabbat in'om emas, balki, bu yerda tanlov mavjudligi ham bor. Bobur sevib, e'zozlagan komil inson, fiziologik-ijtimoiy va ma'naviy-ruhiy shaxsdir. Odamga o'xshagan har bir mavjudotni shaxs deb atash mumkin emas. Bunday yuksak darajaga yetgan komil inson adib oldida Xudoning yerdagi vakili sifatida ko'riladi va ulug' mutafakkir uni faqat qo'rqanlari uchungina Haq (Alloh) demaydilar, deb g'urur bilan aytadi. Bunda insonni Allohga sherik qilmaslik kifoya qiladi.

Boburni komil inson deb hisoblangan zamonda alloma hayotini keng bilish nafaqat uni badiiy-ijodiy merosini, balki ajdodlarimizni ham bilish madaniyatiga aylanishi mumkin. O'zbek xalqining estetik xususiyatlariga oid ilmiy maqolalar va izlanishlar kam, shuning uchun ilmiy ishda Bobur olamining tabiat estetikasiga doir badiiy-estetik qarashlarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, adib o'zining "Boburnoma" asarida sumbul daraxti to'g'risida ham so'z yuritadi: "Sumbul daraxtining ta'rifi eshilib edi, bu yurtlarda ko'rduk. Bu tog' domanida sumbul daraxti ozroqtur. Biror-biror bo'ladur". "G'aroyib gulzorlar ma'juniqliqda tafarruj qildik. Sariq-sariq gullar ochilibtur, arg'uvoniy parcha-parcha yerlarda yakdast sariq gullar ochilibtur. Tarrohlik qilg'andek bu tepaning olti tarafida bir da'fa sariq va bir da'fa arg'uvoniy gul hat-hash musaddas shaklda ochilibtur. Ikki tarafida gul ozroq edi, ko'z kor qilg'uncha ushmundoq gulzor edi" [Rasulova O. 2005: b.101].

Boburning tabiat to'g'risida bag'ishlagan she'rlarida estetik talablarni yaqqol kuzatish mumkin. U tabiat go'zalligini ko'rib, hayratga solibgina qolmay, balki insonning tabiat bilan bog'liqligi va ichki ma'naviy olamini, ko'rinadigan chizmasini qiyoslash orqali yetkazadi. Shu tariqa u jonsiz tabiatga hayot baxsh etadi, uni jonlantiradi, tabiat go'zalliklari mohiyatini ochib beradi. Bobur ijodiga xos tabiat tasvirni, ba'zan bayon qilinayotgan voqea va vaziyat keskinligini kuchaytiradi, ba'zan odamlarning xarakteri va kayfiyatlarini ochib beradi [Boburnoma. 1960: b.28].

Bobur ijodining yana bir muhim estetik jihati shundaki, taassurot nafaqat his qilinadi, balki uning keyingi cho'qqisi, estetikaning to'liqligi va o'sishi hamdir. Bu muallifning estetik go'zallik mohiyatini ochish usulidir. "Daraxtning qalin bargi o'z-

o'zidan shivirlaydi..." degan ma'noga nazar solsak, barglardagi tasvir insonparvarlik bilan shivirlayotgandek estetik ko'rinish hosil qiladi. Ya'ni, shamolda esgan barglarning ovozi ularning shivirlashiga o'xshaydi. Bu Boburning estetik tenglamasi bo'lib, u nafaqat o'quvchiga tabiatning ko'rinadigan ko'rinishini ko'rsatadi, balki tabiatning yashirin ko'rinishini ochish uchun ham xizmat qiladi. Bobur she'rlarida hayvon va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ham estetik jihatdan tasvirlaydi.

Bobur estetikasini tasavvur, his va qabul qilish uchun alohida yondashuv va falsafiy dunyoqarash talab etiladi. She'rlarida tabiat timsolini rang-baranglikda yetkazishining sabablaridan biri Boburning shunday dunyoqarashga ega ekanligidir.

Boburning buyuk individualligi uning ijodi bilan chegaralanib qolmaydi, estetik didining yuqoriligi ham ana shu buyuklikning yana bir namunasidir. Boburning dunyoga estetika ta'siridan qarash san'atini ko'rib chiqish uning falsafiy qarashlari va dunyoqarashini batafsil o'rganish imkonini beradi. Bu izlanish, yosh adiblarning she'r yozishida o'ziga xos badiiy uslubni shakllanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Bundan tashqari, Boburning falsafiy-estetik merosini chuqur anglash va o'rganish, uning sir-asrorlarini aniqlash qobiliyati uning she'rlarini estetik ma'nosini sifatli va to'g'ri yetkazishda katta imkoniyat beradi.

Tabiat tasviridan Bobur nafaqat go'zallikni tan olish, balki hayot haqiqatini o'rganish uchun ham qo'llanilgan. Tabiat hodisalarining vaqtincha ekanligi, tabiat go'zalligi abadiy emasligi, ularning cheksiz o'zgarib turishi insoniyatning abadiy hayot tamoyiliga ziddir. Boburning odam vafot etsa ham, inson ruhi, insoniylik o'lmasligini tabiat estetikasi doirasida tushuntira olishi ham estetikaning ochilmagan qirralaridandir.

She'rlar tabiatga ta'sir qilsa, tabiat ham insoniyatga ta'sir qiladi, chunki inson va tabiat bir butun organizm sifatida bir-biriga bog'liqdir. Bobur ijodiyotida tabiatni estetik badiiy majmua sifatida idrok etishda foydalanilgan yana bir e'tiborli jihat estetik parallelizmdir. Bu tushuncha she'riyatda tabiat va inson estetikasi o'xshashligini ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni estetik ranglar bilan tasvirlaydi.

Tabiatning bir tarkibiy qismining yo'qligi inson tabiatining bir elementining yo'qolishiga olib kelishini – estetikaning yangiligi deb aytish mumkin. Qanday ma'noda, Bobur odamni tabiatga monand qiladi, boshqacha qilib aytganda, tabiat o'zini odamdek ko'rsatadi. Tabiat insoniyatni bilishga sababchi bo'lsa, insoniyat ham tabiatni o'rganishga sababchidir. Bu falsafiy tushunchalarning kengligi, Bobur hikmatlari va estetik firklari sofligining haqiqiy isboti bo'ladi.

Tabiat – har qanday jonning ma'lum bir hodisaga munosabatini aniqlashga yordam beradigan ajralmas vositadir. Bobur o'z she'rlarida tabiat timsolini tabiat rang-barangligida bayon qilgan. Ushbu orqali o'zining dunyoqarashini ifodalagan. Tabiat estetikasidan Bobur nafaqat go'zallik, nafislik va ulug'vorlikni bilish, balki hayotning o'zgarmas haqiqatini his etish uchun ham qo'llangan, desak aslo xato bo'lmaydi. Insonning o'lmas ruhining zamon va tabiat atrofida namoyo etilishi Bobur ijodida

uchraydigan o'ziga xos badiiy ta'sir va estetika tasviri bo'lgan. Bobur esa tabiatga tegsa, tabiat ham tirik mavjudotlarga tegishi muqarrar, chunki inson va tabiat bir-biriga mutlaqo bog'liqdir. Ekologik tarbiya "Boburnoma" asarining boshidan oxirigacha bayon qilib boriladi, qaysi bir joyda filni o'ziga o'rgatish, yana boshqa joyda odamga zarar yetkazmasdan vahshiy hayvonlarni ovlash usullari, yil fasllari, daraxtlar turi, mevalar ta'mi, hajmi, hatto yomg'irning qancha miqdorda yog'ishini ham ipidan-ignasigacha tasvirlaydi. Bobur qimmatbaho obnus daraxti to'g'risida ham batafsil ma'lumot berib o'tgan [Rasulova O. 2005: b.101].

Bizning tasavvurimizda, Boburning tabiatni tasvirlashda, o'zbek halqi ekologik madaniyati an'analarini belgilashda estetik parallelizmdan foydalanishi adabiyotda yangi o'zgarish bo'la oladi.

Hayot haqiqat va voqelik tushunchalari bilan yonma-yon ketayotganligi bois, bu ikki mavzu bir qism sifatida olingan. Umidvormizki, muhokama qilingan tabiatning keyingi qismi Boburning badiiy va estetika tushunchasini yanada ko'proq namoyish etishga xizmat qiladi va yo'l ochib beradi. Asrlar davomida ishq falsafiy idrokning manbai va ajralmas qismi bo'lib kelganligi va ishq ko'pincha ishq bilan bog'liq bo'lganligi bois, sevgining bu turini tahlil qilish Boburning badiiy-estetik olamini yaxshiroq o'rganish va tushunishga yordam beradi, deb ishoniladi. Ushbu falsafiy ma'no uchligini (hayot/haqiqat, tabiat va sevgi) inobatga olgan holda, Bobur ijodiyotidagi estetik hodisalar faqat hayotiy, moddiy qadriyatlar bilan cheklanib qolmasligini aytishimiz mumkin. Boburning hayotga qarashlari – orzu-umidlari va o'ziga xos estetik ranglari bilan ham ajralib turadi. Bobur o'z davrining buyuk rassomi Kamoliddin Behzodning san'ati to'g'risida hayajon bilan so'z yuritadi. Shuningdek, uning ijodidagi kamchiliklarni ham ko'rsatib o'tadi.

"Musavvirlardin Behzod edi, – deb yozadi Bobur, – musavvirliq ishini bisyor nozuk qildi. Vale saqolsiz elning chehrasini yomon ochadur. G'abg'abini ko'p ulug' tortadur. Saqolliq kishini yaxshi chehrakushoy qiladur" [Boburnoma. 1960: b.32].

Butun umrini yuksak badiiy-falsafiy asarlarni yozishga sarf qilgan Bobur kuni kelib umid bargi so'lib, chiroyini yo'qotib, so'lib ketishidan afsuslanadi. Tabiat estetikasi ochilgan bargning so'lishida emas, Boburning umidni gulga emas, bargga qiyoslashidadir. Agar gulni hayot deb hisoblasak, gul barglari turli qadriyatlar, hayot tamoyillari va qonunlari bo'ladi, barglar esa, Boburning fikricha, umid kabidir. Darhaqiqat, umid cheksiz iymonga chorlaydi, izgulik xabarchisi, inson energiyasi va quvvat manbaidir. Ammo barglar quriganida, gul gullashdan va o'zini oziqlantirishdan to'xtamaydimi? Bobur ham xuddi shunday umid bilan yashab, umidning aldamchi ekanligini his qilganida, uning hayoti ma'nosiz bo'lib tuyuldi.

Shu o'rinda shuni aytish kerakki, Bobur o'zining ichki ruhini estetik tuyg'u bilan to'la idrok eta oladi. U estetik qarashlarini o'ziga xos insoniy fazilatlar bilan bog'lagan holda quyidagicha ifoda etadi: "Bashar nafsi yomonlikka mayl etishdan uzoq emas, nafsimni poklay olmadim, chunki nafs yomonlikka amr etuvchidir. Undan qaytish Xudoning lutf-marhamatidan boshqa muqobilda mumkin emas. Bu Ollohning

ehsonidir, kimga xohlasa baxsh etadi, Oллоh katta ehson egasidir” [Boburnoma. 1960: b.467].

Boburning tabiat to'g'risidagi she'rlarida estetik talablarni yaqqol ko'rish mumkin. U tabiat go'zalliklarini ko'rib, hayratga solibgina qolmay, balki insonning tabiat bilan bog'liqligi va ichki ma'naviy olamini ko'rinadigan chizmasini solishtirish orqali bayon qiladi. Ushbu yo'l orqali u jonsiz tabiatga hayot baxsh etadi, uni jonlantiradi, tabiat go'zalligi mohiyatini ochib beradi. Bobur ijodiyotiga xos tabiat tasviri ba'zan bayon qilinayotgan voqea va holat keskinligini kuchaytiradi, ba'zan odamlarning xarakteri va kayfiyatlarini namoyon qiladi [Boburnoma. 1960: b.28].

Bobur ijodining yana bir muhim estetik jihati shundaki, taassurot nafaqat his qilinadi, balki uning keyingi cho'qqisi, estetikaning to'liqligi va o'sishi hamdir. Bu muallifning estetik go'zallik mohiyatini ochish usulidir. “Daraxtning qalin bargi o'z-o'zidan shivirlaydi...” degan ma'noga nazar solsak, barglardagi tasvir insonparvarlik bilan shivirlayotgandek estetik ko'rinish hosil qiladi. Ya'ni, shamolda esgan barglarning ovozi ularning shivirlashiga o'xshaydi. Bu Boburning estetik tenglamasi bo'lib, u nafaqat o'quvchiga tabiatning ko'rinadigan ko'rinishini ko'rsatadi, balki tabiatning yashirin ko'rinishini ochish uchun ham xizmat qiladi. Bobur she'rlarida hayvon va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ham estetik jihatdan tasvirlaydi.

#### IV. Xulosa

Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur milliy estetik merosimizning “estetik xaritasi”ni yarata olgan va tabiatga estetik munosabat ob'ekti sifatida qaragan buyuk ensiklopedik olimdir. O'z davrini boy tajribasi asosida shakllangan bu yuksak badiiy-estetik mahorat ijodkorning o'ziga xos ilmiy eksprementlari asosida qo'lga kiritgan benazir yutuqlaridir.

Boburning tobora shakllanib va takomillashib borayotgan badiiy-falsafiy qarashlarida lirik-romantik ohanglar estetikasi ustunlik qilib bormoqda. Muallifning turli janrlardagi asarlarida, xususan, tabiat go'zalligiga oshufta qalb egasi sifatida betakror, go'zal tasvirlari shaxsni bevosita hayratga soladi.

Adabiy merosning ma'rifiy ahamiyati eng avvalo uning o'ziga mansub bo'lgan xalq hayoti to'g'risida tom ma'lumotlarni bera olish imkoniyati bilan baholanadi. Mazkur badiiy asar ayni vaqtda hayot aksi hamdir. Uning “hayot oynasi” deb nomlani bejiz emas. Muhammad Boburning asarlari qaysi mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar xalqimizning hayoti, an'analari, yashash tarzi, dunyoqarashi va orzu-umidlari to'g'risida to'liq tasavvur bera oladi.

Bobur o'zining bir qator she'rlarida tabiatni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Janrlarga ko'ra, bu she'rlarning barchasi tabiat lirikasiga ta'luqli desak xato bo'lmaydi. Agar ushbu misralarini falsafiy tahlil qiladigan bo'lsak, unda Bobur o'z davrining falsafiy tilida ham tabiat estetikasini yaratgangan muallif sifatida ko'z oldimizga keladi. Bu she'rlarda nafaqat tabiat tasvirlari, balki tabiatning insonga ta'siri, tabiatning inson hayotidagi o'rni va vazifalari, shuningdek, insonning tabiatga bergan bahosi, inson va umuman tabiat o'rtasidagi munosabatlar ham bayon qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, insoning estetik dunyoqarashi va estetik ongini, o'ziga xos qonuniyatlar va tushunchalar noto'g'ri talqin qilmaslik uchun inson tabiat estetikasi doirasidagi munosabatlarni atroflicha o'rganish va xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga egadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қудратуллаев Ҳ. Бобурнинг адабий-эстетик олами. Тошкент. Маънавият. 2018, 25 бет.
2. Зоҳидий А. Бобур фалсафий дунёқарашини (асосий аспекти ва Марказий Осиё, Шимолий Ҳиндистон ижтимоий-фалсафий фикри тараққиётига кўрсатган таъсири). Тошкент. Adabiyot uchqunlari. 2016, 295 бет.
3. Бобурнома. –Тошкент; Фан нашриёти, 1960. –Б.28.
4. Бобурнома. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 2009. –Б.169.
5. Расулова О. “Бобурнома” ва табиат// “Жаҳон адабиёти” журнали, 2005 йил, 2-сон. –Б.101.
6. Samadov A.R., Abdullayev S. Syncretic features of person's moral-aesthetic ideal: diachronic and synchronic approach //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 11. – С. 157-160.
7. Самадов А.Р. Задача единства эстетических потребностей и факторов в развитии эстетического сознания личности //ФИЛОСОФИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. – 2017. – С. 165-168.